

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI II –KURS 201-GURUH  
TOLIBI

ISMOILOV IKROMning

MUSTAQIL ISHI

**MAKTABGACHA YOSHDA BOLALAR  
TAFAKKURINING RIVOJLANISHI**

Termiz – 2014

# **Maktabgacha yoshda bolalar tafakkurining rivojlanishi**

## **Kirish**

**I.bob** Maktabgacha tarbiya yoshida tafakkur muammosining o`rganilishi.

I.1 Bolalar tafakkuri va uning individual xususiyatlari.

I.2 Bolalarda tafakkur turlari va shakllarining o`ziga xosligi.

I.3 Bolalarda tafakkur xususiyatlarining rivojlanishi.

**II.bob** Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning tafakkurini diagnostika qilish metodikalari.

II.1 “ Obektlarni o`xshashligi va farqini aniqlash, sababini tushintirish,tushunchalarni ta`riflash” metodikasi.

II.2 “ Mantiqsiz tasvirlar “ metodikasi.

II.3 Olingan natijalar tahlili va xulosalari.

**III.** Xulosa va tavsiyalar.

**IV.** Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

Ilovalar

**Mavzuning dolzarbligi:** Bola tug`ilishdanoq tafakkur qilish imkoniyatiga ega bo`lmaydi. Hozirgi kunda barcha jabhalarga texnik vositalarning kirib kelishi, odamlardan barcha psixik jarayonlarning ,birinchi navbatda, tafakkurning rivojlangan bo`lishini talab qiladi. Bu esa mavzuning dolzarbligini ko`rsatib turadi.

**Kurs ishining predmeti:** Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola tafakkuri muammosini o`rganish.

**Kurs ishining maqsadi:** Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning tafakkurini o`rganishga oid ilmiy va metodik manbalarni to`plash.

**Kurs ishining metodi:** Kurs ishida quyidagi metodlardan foydalanildi.

Kuzatish, suhbat, eksperiment, faoliyat mahsulini tahlil qilish.

**Kurs ishining ob'ekti:** Termiz shahar Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'mirlash va tashkil etish bo`limiga qarashli 24-maktabgacha ta'lim muassasasining katta guruhi.

**TAFAKKUR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA**

Tafakkur bilish jarayonining eng yuksak shaklidir. U shaxsning obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarni, ularning muhim xususiyatlarini, bog'lanish hamda munosabatlarini bevosita umumlashgan holda aks ettirishdan iborat bo'lgan aqliy jarayonidir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishdan boshlanadi va hissiy bilish chegarasidan tashqariga chiqadi. Dunyoni bilish faoliyati ikki yo'ldan borishi mumkin. Bevosita yo'l bilan narsa va hodisalarning ayrim xossalarni sezgilar yordamida, idrok orqali narsa va hodisalarni yaxlitligicha, shuningdek, ilgari sezib idrok qilgan narsalarni ko'z oldimizda yaqqol tasavvur qilib bilib olamiz. Bu bevosita hissiy bilishdir.

Tafakkur deganda biz nimani tushunamiz. Kundalik hayotimizda tafakkur so'zi ostida so'z orqali fikr bildirish nazarda tutiladi. Psixologiya fanida esa bu chuqur va keng ma'noli tushunchadir. Psixologlar har qanday ruhiy jarayonni tafakkur atamasi ichiga kiritadilar, uning yordamida inson biron bir masalani yechimini izlaydi va hal etadi.

### **Tafakkur turlari**

Tafakkurning boshqa turlari ham mavjud, ular ham o'ziga yarasha masalalarga bog'lanadi. Notanish masalaga inson duch kelar ekan va uning yechimi noaniq bo'lsa, inson o'zining ijodiy tafakkurini ishga soladi. Odatda bu tafakkur turida mantiqiy va tasavvurli turlar birlashib ketadilar, lekin muhim rol ni intuiciyaga bog'lashadi. Ayrim hollarda tasavvur etib harakatlanish tafakkuridan foydalaniladi.

Uning o'ziga xos tarafi esa amaliy harakatlarning kiritilishidir. Bunday tafakkurga ega insonlar haqida odatda "Qo'li gul" deb ham atashadi.

Odamlarning ehtiyojlari, hayotiy qiziqishlari va faoliyatlari juda xilma - xildir. Shu sababli, odamning tafakkuri ham turli hollarda har xil turda namoyon bo'ladi. Bilish uchun kerak bo'lgan vazifalarni va har xil amaliy vazifalarni hal etishga to'g'ri kelib qolinganda, shuningdek, boshqa odamlarning fikrlarini nutq orqali va amaliy muomalada bilib olishga, tushunib olishga to'g'ri kelinganida odam o'z fikrini ishlatadi. Mana shundan ijodiy tafakkur va tushunish deb ataladigan tafakkur kelib chiqadi. Tafakkurning faolligi qay turda bo'lishiga qarab, u ixtiyoriy va ixtiyorsiz tafakkurga bo'linadi, tafakkurning umumiydashganlik darajasiga qarab, u aniq va abstrakt tafakkurga, yo'nalishiga qarab, u nazariy va amaliy tafakkurga bo'linadi.

### **Tafakkurning qaysi bir turi yaxshiroq?**


Keling bolaga shunday masala bersak: "Qiz bolada uch dona konfet bor edi, ona unga yana ikkita donani beradi. Qizaloqning endi nechta konfeti bor?" katta guruh bolasi ushbu misolni murakkab bo'lmagan fikr yuritish orqali yechishga harakat qiladi: "Uchga ikkini qo'shsa besh bo'ladi". Matematikani bilmagan bolakay esa ushbu masalani o'zga usul bilan hal qiladi.


U o'sha uch dona konfetni avval tasavvur etadi (uchtasi qizaloqniki va onasi bergan ikkita qolganini), tasavvur etgan holda, ularni rasmda ko'rgani kabi sanab chiqadi. Javob bir xil besh bo'ladi, lekin bolakay uning yechimini qanday topganligini ayta

olmaydi. Boladan qanday bilding degan savolga, u "topdim" yoki oddiygina "bilmayman" deb javob berishi mumkin.

### **Tafakkur turlari**

Agarda masala mantiqiy fikr yuritish orqali hal etilsa, u holda u inson mantiqiy tafakkurdan foydalanadi. Lekin bunday tafakkurning turi barcha holatlarga birdek to'g'ri kelavermaydi. Masalan, xonada mebellarni qulay tarzda joylashtirishda bunday tafakkur turi yordam bermaydi. Bu yerda ko'z bilan chamalab, qayerda qaysi buyum qulayroq va to'g'riroq joylashtirilishi va bu boradagi turli variantlar ko'zlab chiqiladi. Bunday tafakkur turini ko'rib-tasavvur etilgan tafakkur turiga ajratishimiz mumkin. Tasavvurli tafakkur turi - ko'rgan narsalardan foydalangan holda muammo va masalalarni hal etishda foydalaniladi.





Tafakkur qilish jarayoni biror psixik elementlarning shunchaki bir-biri bilan almashinishi tarzida voqe bo‘lmasdan, balki alohida aqliy operatsiyalar – biz idrok qilayotgan yoki tasavvur qilayotgan narsalar (obyektlar) ustida, biz umumiy lashgan va abstrakt tushunchalarga ega bo‘lgan obyektlar ustida aqliy harakatlar qilish tarzida voqe bo‘ladi.

**Tafakkur qilish – operativ jarayondir.**

Taqqoslash, analiz va sintez, abstraksiya va umumiy lashtirish, aniqlashtirish, klassifikatsiya va sistemaga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir. Bizda yangi hukmlar ana shu operatsiyalar jarayonida hosil bo‘ladi, real olamdagi narsalar va hodisalar to‘g‘risidagi tushunchalar vujudga keladi.

**Taqqoslash** – shunday bir aqliy operatsiyadirki, bu operatsiya ayrim narsalar o‘rtasida o‘xshashlikni yoki tafovutni, tenglik yoki tengsizlik borligini, bir xillik yoki qarama-qarshilik borligini aniqlashda ifodalanadi.

**Analiz** – narsani (buyumlarni, hodisalarni, jarayonni) tarkibiy elementlarga, qismlarga yoki tarkibiy belgilarga bo‘lish demakdir. Analiz jarayonida butunning uning qismlariga uning elementlariga bo‘lgan munosabati aniqlanadi. Biror moddiy narsani uning moddiy elementlariga ajratib bo‘lish eng oddiy shakldagi analizdir. Stolni ayrim qismlarga bo‘lish – uning oyoqlarini, yashiklarini va boshqa shu kabilarni bir-biridan ajratib olish mumkin.

**Sintez** – analizning aksi yoki teskarisi bo‘lgan tafakkur jarayonidir.


Bu jarayon obyektning ayrim elementlarini, qismlarini, belgilarini bir butun qilib qo‘shishdan iboratdir. Sintez jarayonida murakkab bir butun narsa, yoki hodisa tarkibiga kirgan elementlar, yoki qismlar tariqasida olingan buyum yoki hodisalarning shu murakkab bir butun narsa yoki hodisaga bo‘lgan munosabati aniqlanadi. Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlarini bir butun qilib qo‘shishdan iboratdir, amaliy analiz bo‘lgani singari, sintez ham amaliy bo‘lishi mumkin. Chunonchi, mashinaning ayrim detallari bir-biriga tegishli tarzda biriktirilganda, ya’ni ular sintez qilinganda, yaxlit, butun mashina, masalan, odimlovchi ekskavator hosil bo‘ladi.

**Abstraksiya** – shunday bir fikrlash jarayonidirki, bunda tafakkurda aks etilayotgan bir yoki bir necha obyektlarning biror belgisi (xususiyati, harakati, holati, munosabati) shu obyekt yoki obyektlardan fikran ajratib olinadi. Bu jarayonda



obyektdan ajratilgan bir belgining o'zi tafakkurning mustaqil obyekti bo'lib qoladi.

Abstraksiya, odatda, analiz jarayonida yoki analiz natijasida sodir bo'ladi.



Inson butun hayoti davomida turli masalalarga va muammolarga to'baro keladi va ularni yechimini izlashda u tafakkurning turli qirralaridan foydalanadi. Ba'zida esa biron bir holat, muammo yoki masalani bir necha xil yo'llar bilan hal etish mumkin. Bunday holatda ham inson o'z tafakkuriga tayanib o'ziga qulay yechimlardan birini tanlaydi. Insonning masalalar yechimida qaysi yo'llardan foydalanishini o'rgangan holda, uning tafakkurining qay bir turi yaxshiroq rivojlanganligini aniqlash mumkin.

Ushbu masalani yechishda katta guruh bolasi foydalangan matematik tafakkur qulaydir. Lekin shunday masalalar borki, ularni yechishda tasavvurli tafakkurdan

foydalanish foydalidir. Masalan bu geometriya masalalari bo'lishi mumkin. Ularni tez yechishda geometrik figuralarni aqlda yaxshi tasavvur eta olish kerak.

### **Bolaga rasm darslari nimaga kerak**

Ayrim ota-onalar o'z farzandlarining matematika, o'qish va yozuvda muvaffaqiyatli ekanliklariga butkul fikrlarini jamlaydilar. O'z farzandlarini o'yin, rasm chizish, biron narsalarni yasash, konstrukciyalashdan tezroq ajratib olishni istaydilar. Ayrim ota-onalar esa umuman bolalarga rasm darsligi kerak emas deb hisoblaydilar. Ularning fikricha: "Mening farzandimning rasm, suratlarni chizishga qobiliyati yo'q, u hech qachon rassom bo'lmaydi",- deb aytadilar.

Rasm darsi (bolalar uchun mo'ljallangan boshqa darslar singari) bola faqat shu sohaning ko'nikmalarini o'zlashtirishi uchungina mo'ljalanmagan. Ushbu dars bolalarning rivojida ko'proq ahamiyatni kasb etishini bilishlari lozim. Rasm darsi tasavvur etish tafakkurini rivojlantiradi, bola o'z aqli bilan turli holat va hodisalarni tasavvur etishni o'rganadi. Bu esa bolaning to'laqonli aqliy rivoji uchun muhimdir.

### **Tasavvur etish tafakkurining rivojlanishi**

Maktabgacha bolalarning mashg'ulotlarida - masalan - rasm chizish, turli o'yinlar, kubiklardan biron bir narsa yasash - boladan uning kichkinagina miyasida ana shu buyum va hodisalarni tasavvur etish vazifasi turadi. Bu esa bolaning ana shu turdagi tafakkurning rivojlanishida yordam beradi. Ushbu tafakkur turi boshqa

tafakkur turlariga asos bo'lib, so'z boyligi, mantiqiy tafakkurning shakllanishida, kelajakdagi maktab darslarini a'lo darajada o'zlashtirishda ko'maklashadi.

Bolalar maktabga borar ekanlar ularning tasavvur eta olish tafakkuri juda baland darajaga bo'ladi. Lekin bu bolaning aqliy rivojlanishi bilan shug'ullanish kerak emas, degan gap emas. Bola hali ko'p narsalarni o'rganishi va tafakkuri rivojlanishida davom etadi. Shu sababli maktabgacha o'tilgan mashg'ulotlar maktab davrida bolaga foydalidir.

### **Mantiqiy tafakkurning rivojlanishi**

Ko'p holatlarda hali maktabga bormaydigan bolaning fikrlari mantiqdan yiroq bo'ladi, lekin shaklan umuman olganda qabul qilinishi mumkin. "Termometrni odekolon bilan artib tashlang,-deydi besh yoshlik bolakay, - bo'lmasam ukamga mendan kasal yuqadi". Chindan olganda juda jiddiy so'zlar. Aslida esa haroratni uning ukasiga emas, bolakayning o'zinikini o'lchashmoqchi.

Shu bilan birga bolakay termometr yordamida harorat o'lchaganda, agar uni spirt bilan artib tashlanmasa, sog'lom odamni kasallanib qolishi mumkin deb o'ylaydi.

Asl mantiq asosan maktab yoshdagi davrda shakllanadi. Bunda esa maktab ta'limi muhim ahamiyatni kasb etadi.

### **Ilmiy va kundalik hayotdagi tushunchalar**

Maktabda bolalar turli ilmiy tushunchalarni eshitadilar, masalan: "unli tovush", "undosh tovush", "raqam", "asar" va hokazolar. Uyda esa kundalik hayotda ko'p qo'llaniladigan oddiy so'zlar va iboralarga duch keladi. Misol uchun: "kiyim", "kun", "tun" va hokazolar. Ilmiy tushuncha va so'zlarning aniq ta'rifga ega bo'lib,

bola ular nimani anglatishini va qayerda foydalanilishini yaxshi biladi yoki bilib oladi. Ulardan bola kundalik hayotida foydalanmaydi, ulardan bola faqat ma'lum darslarda qo'llaniladi .

Bola katta bo'lgani sari va egallab borayotgan ilmi tufayli ham ikkala tushunchalarning o'zaro boyishi vujudga keladi. Ya'ni bola ilmiy tushunchalar faqat darsdagina emas, kerak bo'lganda kundalik hayotda ham foydalanishini tushunib eta boshlaydi va ularni qo'llaydi. Ana shu yo'sinda bolakay ham maktabda, ham uyda tafakkurning rivojlanishi sodir bo'laveradi.

Bolalar o'z tabiatlariga ko'ra haddan tashqari qiziquvchan bo'ladilar. Ular hamma narsani bilishi juda zarur, ta'mini tatib ko'rishi, ushlab ko'rishi, ular uchun tushunarsiz va yangi bo'lgan narsalarga o'z tushuntirishlarini o'ylab topishi, tajriba o'tkazib ko'rishi va o'z farazlarini tekshirishi lozim. Har bir ota-onaning vazifasi o'z farzandiga uni o'rab turgan olamni tanishiga yordam berishi kerak. Biz sizning e'tiboringizga uning tabiiy qiziquvchanligi qoniqtirishda yordam beradigan bir nechta usullarni taqdim etamiz.

Onaga bo'tqa pishirishda yordam beramiz. Oshxona bola uchun ajoyib va bola aqliga hali tushunarsiz bo'lgan narsalar ro'y beradigan qanaqadir mo''jizaviy laboratoriya hisoblanadi. Boladan oshxonada biror narsa tayyorlashda sizda yordam berishini so'rang. Axir hayratda qoldiradigan o'zgarishlar, sovuq narsalar issiq va qaynatmaga aylanishini bilish, barchasining aralashtirilishi, rangini va ta'mini o'zgartirishi hamda juda mazali biror narsa hosil bo'lishini bilish bolaga juda qiziq.

Yosh “polizchi”ni tarbiyalaymiz. Birgalikda bir nechta daraxt ekish yoki uy oldida kichkina gulzor barpo etish mumkin. Agar ko’chada biror narsa ekish imkoni bo’lmasa, uying kichkina bog’i yoki oranjeriya barpo eting. Tuvakka qandaydir chiroyli bir gul yoki limon yoki apel’sin urug’ini eking va sizning kichkina uy bog’changiz bo’ladi. Balkonda mini-aravacha o’rnating: petrushka yoki piyoz ekib, urug’lar o’sib chiqayotganini, gullayotganini, hid taratayotganini kuzatish mumkin.

Bola 3 yoshigacha o’zlashtirgan so’zlar asosan predmet va xarakatlarning nomlarini bildiradi. Nomlar asosan uning funksiyasini anglatib bu predmet yoki xarakatning tashqi ko’rinishi o’zgarsa ham uning nomi o’zgarmaydi. SHuning uchun ham bola predmetlarning nomlarini ishlatilishini funksiyalariga bog’lagan xolda tez o’zlashtiradi.

Ilk bolalik davrining boshlariga kelib bolada birinchi tafakkur operatsiyalari yuzaga keladi. Buni biz biron bir predmetni olishga xarakat qila olganidan so’ng esa uni sinchiklab o’rganishida ko’rishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari asosan ko’rgazmali xarakatli bo’lib, u atrof olamdagi turli bog’liklarni o’rganishga xizmat qiladi. O’zidan uzoqroq turgan koptokni biron bir uzunroq narsa bilan itarib yuborish mumkinligini ko’rgan bola endi mustakil ravishda divan tagiga kirib ketgan koptokni kaltak erdamida olish mumkinligini tafakkur eta oladi. Bu davrdagi bolalar tafakkurida umumlashtirish katta o’rin tutadi. Umumlashtirishda nutq asos xisoblanadi. Masalan, soat deyilishi bola qo’l soati, osma soat, shuningdek budilʼnikni ham tushunishi kerak. Lekin ular turlicha bo’lgani sabab ularda umumiylikni topish bola uchun birmuncha qiyinroq xisoblanib, bu borada

fikrlash yordamga keladi va umumlashtirishni tashkil etadi. 2-3 yoshli bolalar ma'lum bir predmetlarning o'rniga ularning o'rnini bosishi mumkin deb xisoblagan boshqa narsalardan ham foydalanadilar. Masalan, o'yin jarayonida bola cho'pni qoshiq yoki termometr o'rnida, yog'ochdan krovat yoki mashina o'rniga foydalanishi mumkin. Bir predmetni boshqasi o'rnida qo'llash mumkinligini bilish bola atrof olamni bilishi, o'rganishidagi ahamiyatli burilish xisoblanadi va u dastlabki tasavvurlarni yuzaga keltiradi. Bu yoshdagi bolalar endi asta-sekinlik bilan kattalar aytib berayotgan ertak, voqea, hikoyalarni, shuningdek rasmda chizilgan narsalarni tasavvur eta oladilar. Ertak eshitish jarayonida bola ertak qaxramonlarini kimgadir o'xshatishga xarakat qiladi, u o'zi mustaqil ertak yoki hikoyalarni to'qiy olishi ham mumkin.

Bola 3 yoshigacha o'zlashtirgan so'zlar asosan predmet va xarakatlarning nomlarini bildiradi. Nomlar asosan uning funksiyasini anglatib bu predmet yoki xarakatning tashqi ko'rinishi o'zgarsa ham uning nomi o'zgarmaydi. SHuning uchun ham bola predmetlarning nomlarini ishlatilishini funksiyalariga bog'lagan xolda tez o'zlashtiradi.

Ilk bolalik davrining boshlariga kelib bolada birinchi tafakkur operatsiyalari yuzaga keladi. Buni biz biron bir predmetni olishga xarakat qila olganidan so'ng esa uni sinchiklab o'rganishida ko'rishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari asosan ko'rgazmali xarakatli bo'lib, u atrof olamdagi turli bog'liklarni o'rganishga xizmat qiladi. O'zidan uzoqroq turgan koptokni biron bir uzunroq narsa bilan itarib yuborish mumkinligini ko'rgan bola endi mustakil ravishda divan tagiga kirib ketgan koptokni kaltak erdamida olish mumkinligini tafakkur eta oladi. Bu

davrdagi bolalar tafakkurida umumlashtirish katta o‘rin tutadi. Umumlashtirishda nutq asos xisoblanadi. Masalan, soat deyilishi bola qo‘l soati, osma soat, shuningdek budilʼnikni ham tushunishi kerak. Lekin ular turlicha bo‘lgani sabab ularda umumiylikni topish bola uchun birmuncha qiyinroq xisoblanib, bu borada fikrlash yordamga keladi va umumlashtirishni tashkil etadi. 2-3 yoshli bolalar ma’lum bir predmetlarning o‘rniga ularning o‘rnini bosishi mumkin deb xisoblagan boshqa narsalardan ham foydalanadilar. Masalan, o‘yin jarayonida bola cho‘pni qoshiq yoki termometr o‘rnida, yog‘ochdan krovat yoki mashina o‘rniga foydalanishi mumkin. Bir predmetni boshqasi o‘rnida qo‘llash mumkinligini bilish bola atrof olamni bilishi, o‘rganishidagi ahamiyatli burilish xisoblanadi va u dastlabki tasavvurlarni yuzaga keltiradi. Bu yoshdagi bolalar endi asta-sekinlik bilan kattalar aytib berayotgan ertak, voqea, hikoyalarni, shuningdek rasmda chizilgan narsalarni tasavvur eta oladilar. Ertak eshitish jarayonida bola ertak qaxramonlarini kimgadir o‘xshatishga xarakat qiladi, u o‘zi mustaqil ertak yoki hikoyalarni to‘qiy olishi ham mumkin.

Bola rasm solar ekan, rasmni so‘zlar bilan to‘ldirib, faollik bilan xarakat qiladi, u o‘z tassavvurlari asosida keyinchalik katta yosh odamlarning so‘ziga binoan rasmlar yaratmog‘i mumkin-unda ayrim narsalarning obrazlari vujudga keladi. Rasm solish bilan loy va plastiklardan shakllar yasaydi, natijada, bola analizatorlarining rivojlantirishda hamda moslashgan va differensiyallashgan xarakatning tarkib topiishidan tashqari uning narsa shaklini, xajmini, bir o‘lchovda bo‘lishi va munosabatligini idrok etish takomillasha boradi. 3-4 yashar bola

narsalar o'rtasidagi bog'lanishni farqlab oladi va o'z faoliyatini planlashtiradi, bu faoliyat asta-sekin ijodiy faoliyatga aylanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshida bolaning analizatorli idrok etish jarayoni ham yanada takomillasha boradi. Bola hayotining 3- yoshida beixtiyor idrok maktabgacha tarbiya yoshidagi katta bolada ma'lum bir maqsadga qaratilgan, tanlangan idrokka aylanadi. Kuzatuvchanlik tarkib topadi. Idrok etishda so'zning roli osha boradi bola narsalarning belgilab qo'ygan sifatlari va xususiyatlarini aytib ko'rsatadi. Idrok jarayoni bolaning tafakko'rini o'stiradi. Idrok jarayoni o'z faoliyati davomida va tafakkur jarayonida tobora takomillashadi. O'yin jarayonida 3-yashar bolada dastlabki umumlashtirish yuzaga keladiki, bu narsa bolaning oddiy masalalarni echishda imkon beradi. SHu tariqa tafakkurning eng sodda formasi bolaning narsa buyumlaridan foydalanish faoliyati bilan bog'langan vositani amaliy tafakkurni paydo bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola tasavvurlari doirasi kengayishi va bilimning oshishi uning aqliy faoliyatini xarakterini o'zgartiradi. Nutqning o'sish faoliyatining kengayishi yangi tafakkur formalari uchun sharoit ko'rsatadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi 5-6 yashar bola tassavvurlaydi keyin esa muxokama qiladi, umumlashtiradi. SHu yoshdagi bolaning tafakkuri konkret obrazli emotsional va yaqqol tafakkur bo'ladi. Muxokama bevosita narsa buyum bilan bog'langan. Bola umumlashtirilgan tushunchalarni o'zlashtiradi fikr yuritish operatsiyalari faqat idrok etishgina emas xayolga ham asoslandi.

Dastlabki (garchi mukammal bo'lmasa ham) xukumlar, xulosa chiqarish va yakun yasash paydo bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib bolaning katta



yoshli qilish va ularga taqlid qilib mustaqil ravishda xulosalar chiqarishda va umumlashtirida.

Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning oldiga qo'yilgan yangi talablar asosida takomillasha boradi. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining faoliyatlari uchun kandaydir ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurotlar koldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib koladilar. Bog'cha yoshidagi bolalar tafakkuri va uning o'sishi o'ziga xos hususiyatga ega.

Tafakkur bolaning Bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi o'sgan bo'lishi, uchinchidan esa, bog'cha yoshidagi bolalarning juda ko'p erkin mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir. Bog'cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi ular tafakkurining faollashayotganligidan darak beradi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik susaya boshlaydi.

Odatda har kandy tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tug'ilishi tufayli paydo bo'ladi. Juda ko'p otanalar va ayrim tarbiyachilar ham bolalar ortiqrok savol berib yuborsalar, «ko'p mahmadona bo'lma», «sen bunday gaplarni qaerdan o'rganding», deb jerkib tashlaydilar. Natijada bola o'ksinib, o'z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ammo ayrim passiv va tortinchok bolalar xech bir savol bermaydilar. Bunday

bolalarga turli mashg'ulotlar va sayohatlarda kattalarning o'zlari savol berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim.

Har kandy tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. SHuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilingan sayoxatlarda turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar va analiz hamda sintez qilib ko'rishga intiladilar.

Bog'cha yoshidagi bolalarning hayoli, asosan, ularning turli-tuman o'yin faoliyatlarida o'sadi. Birok, shu narsa diqqatga sazovorki, agar bog'cha yoshidagi bolalarda hayol qilish qobiliyati bo'lmaganda edi, ularning hayoli ham xilma-xil bo'lmas edi. Bog'cha yoshidagi bolalarning hayollari turli xil mashg'ulotlarda ham o'sadi. Bog'cha yoshidagi bolalar hayolining o'sishiga faol ta'sir qiluvchi omillardan yana biri ertaklardir. Bolalar xayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma'lum munosabat yuzaga keladi

Bog'cha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz his-tuygular g'oyat kuchli va juda tez namoyon bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarning his-tuygulari ular organik ehtiyojlarining kondirilishi va kondirilmaslgi bilan bog'likdir. Bu ehtiyojlarning kondirilmaslgi sababli bolada noxushlik (yokimsiz), norozilik, iztiroblanish tuygularini qo'zg'aydi. Katta bog'cha yoshidagi bolalarda burch hissi – nima yaxshi-yu, nima yomonligini anglashlari bilan ahloqiy tasavvurlari

o'rtasida bog'liklik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshiriqni bajarganlarida mamnunlik, shodlik tuyg'ulari paydo bo'lsa, biron tartib qoidani buzib qo'rganlarida xafalik, ta'bi xiralik hissi tug'iladi.

Bolaning maktabda muvaffakiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'lik. Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning ogirligi oyiga 150- 200 gm dan buyi esa 0,5 sm dan ko'payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda yura oladilar, tez va engil yugura oladilar. Ular yugurib kelib sakrash, kong'kida yugurish, changida uchish, so'zish singari harakatlarni ham bemalol bajara oladilar. Musiqa buyicha mashgulotlarda ham bu yoshdagi bolalar xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashklarni ham anik, tez, engil va chakkon bajaradilar.

Bolaning maktabda muvaffakiyatli o'qishi nafaqat uning akliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga ham bog'lik. Maktabga o'qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini - turli majburiyatlari va xuquqlari bo'lgan va unga turli talablar qo'yiladigan - o'quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo'lmog'i lozim.

Bu davrda bolalarda avvalo bilish soxalari so'ngra esa emotsional motivatsion yo'nalish bo'yicha ichki shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo'nalishdagi rivojlashin obrazlilikdan to simvollilikgacha bo'lgan bosqichlarni o'taydi. Obrazlilik deganda bolalarning turli obrazlarni yaratish, ularni o'zgartirish

va ularni erkin harakatga solish, simvollilik deganda esa belgilar sistemasi (matematik, lingvistik, mantiqiy va boshqalar) bilan ishlash malakasi tushuniladi. Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqoti asosan bolalarning konstruktorlik o'yinlarda, texnik va badiiy ijodlarida namayon bo'ladi. Bu davrda maxsus layoqatlar kurtaklarning birlamchi rivojlanishi ko'zga tashlana boshlaydi. Bilish jarayonlarida ichki va tashqi harakatlarning sintezi yuzaga keladi. Biron bir narsani idrok qilish jarayonida bu sintez persentiv harakatlarda, diqqatda ichki va tashqi harakatlar va xolatlar rejasini boshqarish va nazorat etishda, xotirada esa materialni esda saqlab qolish va esga tushurishning ichki va tashqi to'zilmasini bog'lay olishda ko'rinadi. Tafakkurda esa amaliy masalalar ishining usullarini bitta umumiy jarayonga birlashtirish sifatida yaqqol nomoyon bo'ladi. SHuning asosida insoniy intellekt shakllanadi va rivojlanadi. Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa bu yoshdagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yuzaga kelayotganidan dalolat hisoblanadi. Bilish jarayonlarning sintezi bolaning o'z ona tilisini to'liq egallashi asosida yotadi. Bu davrda nutqning shakllanish jarayoni yakunlana boshlaydi. Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada elementar axloqiy norma va qoidalar egalaniladi. Bu norma va qoidalar bola axloqini boshqaradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

- 1.Karimov I.A. «Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori». T., 1997.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch” T., 2008
- 3.Vohidov. M “Bolalar psixologiyasi” T.,1982.
- 4.Davletshin.M va boshqalar” Ysh va pedagogik psixologiya “T., 2002
- 5.Nishonova.Z ,Alimova.G “Bolalar psixologiyasi va uni o`qitish metodikasi” T.,2006

6.Norboshyeva.M.O “Bolalar psixologiyasi” T., 2002

7.G`oziev E.G. Psixologiya Toshkent «Universitet» 1994.

8.G`oziev E.G. Psixologiya.Toshkent, «O`zMU»,2002.

9.G`oziev E.G` . O`quvchilarda umumlashtirish usullarini shakllantirish va ularning aqliy taraqqiyoti. Toshkent. 2001.

.

### **Qo`shimcha adabiyotlar**

10. G`oziev E. G. O`quvchilarning o`quv faoliyatini boshqarish. T. 2002.

11. G`oziev E. G. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent. 2002

12. [www.psiholog.uz](http://www.psiholog.uz)

13. [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)

14. [www.flagiston.ru](http://www.flagiston.ru)